

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI**

**KADIROV SAXOBIDDIN SHAROFVICH**

**NOMODDIY AKTIVLAR HISOBI VA TAHLILI USLUBIYOTINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024-yil**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of Philosophy (PhD) on economical  
sciences**

**Kadirov Saxobiddin Sharofovich**

Nomoddiy aktivlar hisobi va tahlili uslubiyotini takomillashtirish ..... 3

**Кадиров Сахобиддин Шарофович**

Совершенствование методологии учета и анализа нематериальных

активов.....27

**Kadirov Saxobiddin Sharofovich**

Improving the methodology for accounting and analysis of intangible assets .....53

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works .....59

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI**

**KADIROV SAXOBIDDIN SHAROFVICH**

**NOMODDIY AKTIVLAR HISOBI VA TAHLILI USLUBIYOTINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024-yil**

**Falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.2.PhD/Iqt1718 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent davlat agrar universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi ([www.tsue.uz](http://www.tsue.uz)) va "ZiyoNet" axborot-ta'lim portali ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) manziliga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Rizayev Nurbek Kadirovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Abdusalomova Nodira Baxodirovna**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Avlokulov Anvar Ziyadullayevich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi DSc.03/10.12.2019.I.16.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "\_\_\_\_\_" soat \_\_\_\_\_ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72. Faks: (99871) 239-43-51. e-mail: [info@tsue.uz](mailto:info@tsue.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72. Faks: (99871) 239-43-51. e-mail: [info@tsue.uz](mailto:info@tsue.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "\_\_\_\_\_" kuni tarqatildi.  
(2024-yil "\_\_\_\_\_" dagi \_\_\_\_\_-raqamli reestr bayonnomasi).

**M.P. Eshov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

**U.V. Gafurov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, i.f.d., professor

**S.K. Xudoyqulov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash huzuridagi ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda innovatsion jarayonlarning rivojlanishida nomoddiy aktivlardan maqsadli va samarali foydalanishga katta e'tibor qaratilmoqda. Rivojlangan mamlakatlarda nomoddiy aktivlarning o'sish tendensiyasi kuzatilmoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, "nomoddiy aktivlarning o'sish sur'atlari yiliga 15 foizdan yuqori holda saqlanib qolmoqda, jumladan, bu holat Xitoyda 30 foiz, AQShda 7-10 foizgacha va Germaniyada 5 foizni tashkil etadi. Oxirgi o'n yilda qariyb 1,2 mlrd AQSh dollari miqdoridagi nomoddiy aktiv obyektlari muomalaga chiqariladi. Natijada iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlarining umumiy aktivlari 120,0 trln AQSh dollaridan ortadi. Buning 63,6 trln dollari (53,0 foiz) moddiy ko'rinishdagi, ya'ni asosiy vositalar, TMZ va pul mablag'lari hissasiga to'g'ri keladi. Aktivlarning qolgan 56,4 trln AQSh dollari (47,0 foiz) nomoddiy aktivlar, ya'ni patent, nou-xau, dasturiy mahsulotlar, tovar belgilar kabilarning hissasiga to'g'ri keladi"<sup>1</sup>. Dunyo mamlakatlarida nomoddiy aktivlar hisobini xalqaro standartlar asosida tashkil etish va uning axborotlaridan samarali foydalanish muammosi tobora dolzarb bo'lib bormoqda.

Jahonda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini qo'llash sharoitida nomoddiy aktivlar hisobi va tahlilini tashkil etishni takomillashtirishga doir ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu tadqiqotlarda nomoddiy aktivlar hisobini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS)ga muvofiqlashtirish, nomoddiy aktivlarni buxgalteriya hisobida baholash tartibini takomillashtirish, nomoddiy aktivlarni moliyaviy hisobotlarda aks ettirish hamda tahlil qilishning nazariy va uslubiy jihatlarini yaxshilash, nomoddiy aktivlar hisobi metodlarini ishlab chiqish, qishloq xo'jaligi korxonalarida nomoddiy aktivlar hisobini yuritish yuzasidan tadqiqotlar olib borilmoqda.

O'zbekistonda ham nomoddiy aktivlar hisobi, auditi va tahlili uslubiyotining nazariy va amaliy asoslarini takomillashtirish borasida ilmiy izlanishlarga alohida e'tibor qaratilgan. Ushbu tadqiqotlar natijasida nomoddiy aktivlarni tasniflash, ularni tan olish, baholash, hisobini tashkil etish va yuritish, foydalanuvchilar uchun axborot imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida ularni moliyaviy hisobotlarda aks ettirish hamda tahlil qilish uslubiyoti masalalari takomillashtirib kelinmoqda. Ammo dunyo mamlakatlarida nomoddiy aktivlarning rivojlanishi turli darajada bo'lganligi Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS)da qo'yilgan talablarda ularning hisobi va tahlili bo'yicha xalqaro darajada erishilgan natijalarning to'liq joriy etilmay qolishiga sabab bo'lmoqda. Bugungi kunda xalqaro hisob tajribasi asosida nomoddiy aktivlarga bo'lgan huquqlarni hisobda tan olish, baholash, buxgalteriya schyotlarida yuritish, amortizatsiyani hisoblash va moliyaviy hisobotlarda aks ettirish ularning tahlili uslubiyoti yuzasidan ilmiy izlanishlarni amalga oshirishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-

---

<sup>1</sup> Brand Finance Nation Brands 2022. <http://brandfinance.com/who-we-are/our-story/>.

yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli farmoni, 2020-yil 24-fevraldagi "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4611-sonli qarori hamda buxgalteriya hisobi va tahlili faoliyatiga tegishli bo'lgan boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Ushbu dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Xorijiy iqtisodchi olimlardan D.Andrissen, E.Arene, M.Bernard, Sh.Bred, E.Bruking, R.Kaplan, P.Lerner, D.Levin, D.Norton, M.Polani, A.Poltorak, K.Peter, F.Rikkeri, T.Richard, A.Styuart, K.Sveybi, R.Tissen, V.F. Paliy, L.P. Krasnova<sup>2</sup>lar o'z tadqiqotlarida nomoddiy aktivlarni hisobga olish tamoyillari, baholash uslubiyoti va tahlilining nazariy va metodologik asoslari; V.Alekseev, M.Bakanov, P.Bezrukix, S.Barngols, G.Bromberg, R.Budnik, A.Grigoreva, E.Dalinina, N.Karzayeva, V.Kovalev, A.Kozirev, B.Leontev, S.Valdaysev, E.Orkina, A.Sheremet, E.Yushkov<sup>3</sup> kabi olimlar

---

<sup>2</sup> Andriessen D. Tissen R. Weightless Wealth: Find Your Real Value in a Future of Intangible Assets. Financial Times Prentice Hall, 2000. Bernard Marr. Perspectives on Intellectual Capital. Elsevier Butterworth Heinemann, 2005., Brad, SHERMAN The making of modern intellectual property law: the British experience, 1999. 1760–1911. Cambridge University Press. – P. 207. ISBN 978-0-521-56363-5., Брукинг Э. Интеллектуальный капитал / Пер. с англ. Под ред. Л.Н. Ковалик. – СПб.: Питер, 2001. – С. 256. Levine, David; Michele Boldrin (2008-09-07). Against intellectual monopoly (PDF). Cambridge University Press. ISBN 978-0-521-87928-6. Peter K (2007). Intellectual Property and Information Wealth: Copyright and related rights. Greenwood Publishing Group. – P. 346. ISBN 978-0-275-98883-8., Ricceri Federica. Intellectual Capital and Knowledge Management: Strategic Management of Knowledge Resources. Routledge, 2008. Alexander Poltorak, Paul Lerner (2002). Essentials of intellectual property. John Wiley & Sons. Inc. © 2002 New York. Brooking A (1996)., Motta E.A / Taxonomy of Intellectual Capital and Methodology for Auditing It/17th Annual National Business Conference, McMaster University, Hamilton, Ontario, Canada. Jan 24-26, 1996.; Каплан Р.С. Сбалансированная система показателей. От стратегии к действию. Пер. с англ. – М.: ЗАО Олимп-бизнес, 2003. – 304 с.; Sveiby K.E. Intellectual Capital and Knowledge Management. 1998. – P. 213. Richard T. De George, "Intellectual Property Rights" in The Oxford Handbook of Business Ethics, by George G. Brenkert and Tom L. Beauchamp, vol. 1, 1st ed. (England: OxfordUniversityPress), 417. Стюарт Томас А. Интеллектуальный капитал. Новый источник богатства организаций / Пер. с англ. В. Ноздриной. – М.: Поколение, 2007. – 368 с. Stewart T.A. Intellectual Capital. The New Wealth of Organizations. New York: Currency Double day, 1997.; В.Ф. Палий «Международные стандарты учета и финансовой отчетности». Учебник. – Москва: «ИНФРА-М», 2007.; Краснова Л.П. «Финансы, деньги, кредит». Учебник. – М.: «Юрист», 2000.

<sup>3</sup> Алексеев В.И. Обеспечение прав организации на результаты интеллектуальной деятельности: Методические рекомендации / В.И. Алексеев. – М.: «Патент», 2013. – 248 с. Баканов М.И., Шерemet А.Д. Теория экономического анализа. – М.: «Финансы и статистика», 2007., Безруких П.С. Бухгалтерский учет. Учебник. – 4-е изд., пер. и доп. – М.: 2002. – 719 с. Бромберг Г.В. Интеллектуальная собственность. Часть I: Лекции / Г.В. Бромберг. – М.: Изд-во МГУ, 2012. – 184 с. Будник Р.А. Эволюция системы авторских и смежных прав в информационном обществе: от исключительного к инклюзивному праву автора / Р.А. Будник. – М.: Юрлитинформ, 2013. – 192 с. Как получить евразийский патент / Н.М. Бебирли [и др.]; под общ. ред. А.Н. Григорьева. – М.: «Патент», 2013. – 63 с. Данилина Е.А. Интеллектуальная собственность и трудовые отношения / Е.А. Данилина, А.Н. Попов. – М.: ИНИЦ «Патент», 2013. 72 с. Лукьянова Е. Брединг. Неучтенные миллиарды. // Эксперт, 2001. Карзаева Н.Н. Нематериальные активы: бухгалтерский и налоговый учет. – М.: 2002. 208 с. Козырев А.П. Математический и экономический анализ интеллектуального капитала. Дисс. д.э.н: ЦЭМИ РАН. – М., 2002. – С. 42., Леонтьев Б.Б. Инвентаризация интеллектуальных прав на результаты интеллектуальной деятельности / Б.Б. Леонтьев, Х.А. Мамаджанов. – М.: ИНИЦ «Патент», 2013. – 268 с. Леонтьев Б.Б. Цена интеллекта. Интеллектуальный капитал в российском бизнесе. – М.: Издательский центр «Акционер», 2002. – 200 с., Барнгольц С.Б. Экономический анализ хозяйственной деятельности на

nomoddiy aktivlarning huquqiy himoyasini mustahkamlash asosida buxgalteriya hisobini tashkil etish va ularni moliyaviy hisobotlarda aks ettirish masalalarini tadqiq etgan.

Jumladan, iqtisodchi olim V.F. Paliy o'z tadqiqotida nomoddiy aktivlarning amortizatsiya qilinishi, qadrsizlanishi, zaxiralar yaratilishi, 38-, 37- va 36-MHXSlar bo'yicha "nomoddiy aktivlarning amortizatsiya hisobi, amortizatsiya hisoblash usullari, foydalilik muddatlari, aniqlash talablari, nomoddiy aktivlarni baholash, qayta baholash, nomoddiy aktivlarning boshqa jihatlari haqida ma'lumotlar bergan"<sup>4</sup>.

O'zbekistonda ham nomoddiy aktivlar hisobi, tahlili va auditi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. R.D. Dusmuratov, A.K. Ibragimov, I.N. Ismanov, B.I. Isroilov, Sh.I. Ilxamov, A.A. Karimov, N.F. Karimov, M.Q. Pardayev, N.K. Rizayev, M.E. Po'latov, K.B. Urazov, B.A. Xasanov, Z.N. Qurbanov, K.R. Hotamov, I.N. Qo'ziyev, B.Y. Menglikulov, I.R. Davletov, O.T. Nurmatov, A.M. Xudaykulov va boshqalar<sup>5</sup> ushbu sohaga oid qator ilmiy maqolalar, monografiyalar, o'quv qo'llanmalar va darsliklar chop etgan. Mazkur ilmiy ishlarda nomoddiy aktivlarni hisobga olish, tahlil qilish va auditini o'tkazishning metodologik masalalari o'rganilgan.

Iqtisodchi olim R.Dusmuratov tomonidan nomoddiy aktivlarni hisobga olish va audit o'tkazish uslubiyoti shakllantirilgan<sup>6</sup>. I. Ismanov nomoddiy aktivlar hisobiga e'tibor qaratishni talab etuvchi aktivlar sifatida moliyaviy hisobotlarning

---

современном этапе. – М.: «Финансы и статистика», 1984. – 214 с. Ковалев В.В. Анализ хозяйственной деятельности предприятия. – М.: «Проспект», 2008., Валдайцев С.В. Оценка бизнеса и управление стоимостью предприятия: Учеб.пособие для вузов. – М.: «ЮНИТИ-ДАНА», 2001. – 491., Оркина Е.А. Оценка стоимости интеллектуальной собственности: учебное пособие / Е.А. Оркина. – Ростовн/Д: Феникс, 2013. – 124 с. Шеремет А.Д. Методика финансового анализа. – М.: «ИНФРА-М», 1999. – 250 с. Юшков Е.С. Интеллектуальные права в сфере научных исследований и развития технологий. – М.: 2009. – 128 с.

<sup>4</sup> В.Ф. Палий. «Международные стандарты учета и финансовой отчетности». (Учеб). – Москва: «ИНФРА-М», 2007.

<sup>5</sup> Dusmuratov R.D. Audit asoslari. Darslik. – T.: O'ME, 2003. – 612-b.; Ibragimov A.K. Banklarda buxgalteriya hisobining milliy va xalqaro standartlari. – T.: "Moliya", 2016. – 370-b.; Karimov A. va boshq. Buxgalteriya hisobi. Darslik. – T.: 2004-y. – 592-b.; Karimov N.F. Tijorat banklarida ichki audit. Monografiya. – T.: 2006. – 262-b.; Rizayev N.K. Intellektual mulk obyektlari hisobi va tahlilini tashkil etish metodologiyasi. I.f.d (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avt., 2019-y.; Menglikulov B.Yu. Nomoddiy aktivlar va ularni hisobga olish bo'yicha amaliy sharh (BHXS 38- va 7-son BHMSning qiyosiy tahlili). Uslubiy qo'llanma. – Toshkent: ToshDAU Tahririyat-nashriyot bo'limi. 2021. – 58-bet.; Pardayev M.Q., Isroilov B.I. Moliyaviy tahlil. – T.: "Iqtisodiyot va huquq dunyosi", 1999. – 368-b.; Po'latov M.E. Intellektual kapital hisobi va auditi metodologiyasini takomillashtirish. I.f.d. (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avt., 2017-y.; Qurbonov Z.N. Soliqlar hisobi va auditining nazariy va metodologik asoslari. I.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. – T.: "BMA", 2008. – 272-b.; Xasanov B.A. Amaliy boshqaruv hisobi. – T.: 2013-y. – 304-b.; Ismanov I.N. Uzoq muddatli aktivlarning buxgalteriya hisobi va auditi metodologiyasini takomillashtirish. I.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoref., 2009. – 37-b.; Urazov K.B. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida buxgalteriya hisobining konseptual masalalari. – T.: "Fan", 2005. – 236-b.; Hotamov K.R. Bilvosita soliqlar hisobi va tahlilini takomillashtirish. Monografiya. – T.: "Moliya", 2016. – 180-b.; Qo'ziyev I.N. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida auditorlik hisobotini tuzish va umumlashtrish metodologiyasini takomillashtirish. I.f.d. (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avt. – T.: 2017. – 70-b.; Rizayev N.K., Menglikulov B.Yu., Kadirov S.Sh. Nomoddiy aktivlar va ularni hisobga olish bo'yicha amaliy sharh (BHXS 38- va 7-son BHMSning qiyosiy tahlili). Uslubiy qo'llanma. – Toshkent: ToshDAU Tahririyat-nashriyot bo'limi, 2021. – 58-bet.; Davletov I.R. Agrar sohada intellektual mulk obyektlarining buxgalteriya hisobi va auditini takomillashtirish. I.f.d. (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avt., 2018-y.; O.T. Nurmatov. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayonlarida nomoddiy aktivlar hisobi va auditini takomillashtirish masalalari. I.f.d. (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avt., 2019-y.; A.M. Xudaykulov. Nomoddiy aktivlar hisobi va auditini takomillashtirish. I.f.d. (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avt., 2023-y.

<sup>6</sup> Dusmuratov R.D. Audit asoslari. Darslik. – T.: "O'ME", 2003. – 612-b.

xalqaro standartlariga transformatsiya qilish masalalariga to'xtalib o'tgan<sup>7</sup>. Sh.Ilxamov esa nomoddiy aktivlarni uzoq muddatli aktivlarni tan olishdagi mezonlar bo'yicha o'rgangan<sup>8</sup>.

I. Davletov agrar sohada nomoddiy aktivlarni intellektual mulk obyektlari sifatida tadqiq etgan hamda ularning hisobga olish va auditi masalalarini yoritgan<sup>9</sup>. M. Pardayevning ilmiy asarlari va darsliklarida nomoddiy aktivlar tahlilining modellari va ko'rsatkichlar tizimi shakllantirilgan<sup>10</sup>. N.K. Rizayev esa avtomobilsozlik sohasidagi nomoddiy aktivlar hisobi va tahlilini o'rgangan. Shuningdek, u o'z doktorlik dissertatsiyasida nomoddiy aktivlar tarkibiga kiruvchi intellektual mulk obyektlari hisobi va tahlili metodologiyasini tadqiq etgan<sup>11</sup>. O.T. Nurmatov tadqiqotida nomoddiy aktivlarni baholash usullari va ularning qadrsizlanishi yoritilgan hamda nomoddiy aktivlar bilan bog'liq jarayonlarni soliqqa tortish masalalari o'rganilgan<sup>12</sup>. A.M. Xudaykulov tomonidan O'zbekiston Respublikasi "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ tizimidagi korxonalarining nomoddiy aktivlar hisobi hamda auditorlik tashkilotlarining nomoddiy aktivlar auditini yuritishdagi faoliyati tahlil qilingan<sup>13</sup>.

Shunday bo'lsada, respublikamizda olib borilgan tadqiqotlarda aynan nomoddiy aktivlar hisobi va tahlili uslubiyotini xalqaro standartlar talablari asosida takomillashtirishga qaratilgan masalalar tizimli ravishda ilmiy-nazariy va metodologik jihatdan to'liq asoslangan va o'z yechimini topgan deya olmaymiz. Bu esa ushbu dissertatsiya mavzusini tanlash va tadqiqot vazifalarini belgilashga asos bo'ladi.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya mavzusi Toshkent davlat agrar universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq, "Raqamli iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida buxgalteriya hisobi, moliyaviy hisobot, tahlil, auditorlik faoliyati va moliya-kredit mexanizmini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish" mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** nomoddiy aktivlar hisobi va tahlili uslubiyotini takomillashtirish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida nomoddiy aktivlarni tan olish va takomillashtirish baholash uslubiyotini taklif etish;

nomoddiy aktivlar hisobini tashkil etishni MHXS talablariga muvofiqlashtirish

---

<sup>7</sup> Ismanov I.N. Uzoq muddatli aktivlar buxgalteriya hisobining metodologik asoslari. Monografiya. – T.: "Fan", 2006. – 172-b.

<sup>8</sup> Ilxamov SH.I. Investitsiya faoliyatida buxgalteriya hisobi va audit. I.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoreferati, 2005-y. – 24-b.

<sup>9</sup> Davletov I.R. Agrar sohada intellektual mulk obyektlarining buxgalteriya hisobi va auditini takomillashtirish. Falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avt., 2018. – 48-b.

<sup>10</sup> Pardayev M.Q., Isroilov B.I. Moliyaviy tahlil. – T.: "Iqtisodiyot va huquq dunyosi", 1999. – 368-b.

<sup>11</sup> Rizayev N.K. Nomoddiy aktivlarning buxgalteriya hisobi va moliyaviy tahlilini takomillashtirish. I.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. – T.: 2004-yil; Rizayev N.K. Intellektual mulk obyektlari hisobi va tahlilini tashkil etish metodologiyasi. I.f.d. (DSc) darajasini olish uchun yozilgan diss. – T.: 2019-y.

<sup>12</sup> Nurmatov O.T. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayonlarida nomoddiy aktivlar hisobi va auditini takomillashtirish masalalari. I.f.f.d. (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avt., 2019-y.

<sup>13</sup> Xudaykulov A.M. Nomoddiy aktivlar hisobi va auditini takomillashtirish. I.f.f.d. (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avt., 2023-y.

yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

hisob siyosatiga muvofiq, nomoddiy aktivlarga amortizatsiya hisoblash tartibini tanlash hamda ularni daromad solig'i bazasiga olib borish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

nomoddiy aktivlarning moliyaviy hisobotlarini tuzish konsepsiyasiga muvofiq, ularni hisobotlarda aks ettirish yuzasidan takliflar tayyorlash;

nomoddiy aktivlarni tahlil qilish ko'rsatkichlarini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish bo'yicha takliflar tayyorlash;

nomoddiy aktivlar tahlili uslubiyotini takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida respublikamizda faoliyat yuritayotgan qishloq xo'jaligi korxonalari, jumladan, Toshkent viloyati "TCT Agro cluster" MChJ, Sirdaryo viloyati "Sardoba universal klaster" MChJ va Buxoro viloyati "Buxoro agroklastar" MChJlar tanlab olingan.

**Tadqiqotning predmeti** nomoddiy aktivlar hisobi va tahlilini tashkil etishdagi muammolar va iqtisodiy munosabatlar majmuyi hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada induksiya va deduksiya, analiz va sintez, tizimli yondashuv, mantiqiy fikrlash, monografik kuzatuv, taqqoslash, omilli va regression tahlil usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

0411-"O'simliklarning yangi navlariga bo'lgan huquq bo'yicha patentlar", 0412-"Hayvonlarning yangi zotlariga bo'lgan huquq bo'yicha patentlar" hamda ularning amortizatsiyasi uchun 0511-"O'simliklarning yangi navlariga bo'lgan huquq bo'yicha patentlar amortizatsiyasi" va 0512-"Hayvonlarning yangi zotlariga bo'lgan huquq bo'yicha patentlar amortizatsiyasi" ishchi schyotlari taklif qilingan;

qishloq xo'jaligi korxonalari uchun "amortizatsiyalanuvchi aktivlar" moddasi bo'yicha amortizatsiya me'yorlari nomoddiy aktivlardan foydalanish muddatlaridan kelib chiqqan holda, seleksiya yutuqlari uchun yillik amortizatsiya me'yori 4 foiz (yoki xizmat muddati 25 yilga teng), dasturiy ta'minot va ma'lumotlar bazalari uchun 25 foiz (xizmat muddati 4 yil) hamda qishloq xo'jaligi tovarlari belgilari uchun 15 foiz (xizmat muddati 7 yil) belgilash orqali takomillashtirilgan;

qishloq xo'jaligi korxonalarida nomoddiy aktivlar daromadliligi ( $NMA_I$ ), rentabelligi ( $NMA_R$ ) va aylanuvchanligi ( $NMA_T$ ) ko'rsatkichlari asosida nomoddiy aktivlardan foydalanish shartlari ( $NMA_I \geq 1$  so'm,  $NMA_R > 1$  so'm,  $NMA_T \geq 30$  marta) mezonlarini ishlab chiqish orqali samaradorlik tahlilining aniqligini oshirish taklif qilingan;

qishloq xo'jaligi korxonalarida innovatsion ishlanmalarning amalga oshish jarayonlari xususiyatlariga muvofiq keluvchi nomoddiy aktivlarni tan olish, baholash hamda guruhlash asosida intellektual mulk obyektlari hajmini oshirish taklifi asoslangan.

**Tadqiqotning amaliy natijasi** quyidagilardan iborat:

nomoddiy aktivlar hisobini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida tashkil etish va buxgalteriya hisobi schyotlarida aks ettirish uslubi ishlab chiqilgan;

nomoddiy aktivlarning foydali xizmat muddatlari uchun korxonalarining hisob siyosati tarkibiga "Nomoddiy aktivlar amortizatsiya siyosati"ni kiritish tavsiya

etilgan;

moliyaviy hisobotning 1-shakli “Buxgalteriya balansi”ning amaldagi tarkibiy tuzilishi nomoddiy aktivlarning daromadliligi bo‘yicha modda kiritish orqali takomillashtirilgan;

nomoddiy aktivlar holati va ulardan samarali foydalanish tahlili bo‘yicha ko‘rsatkichlar tizimi tavsiya qilingan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** tadqiqot ishida qo‘llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, ma’lumotlarning rasmiy manbalardan, xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi va Qishloq xo‘jaligi vazirligining rasmiy statistika ma’lumotlaridan olinganligi, xulosa va takliflarning mutasaddi tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy etilganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot ishi natijalarining ilmiy ahamiyati olingan ilmiy xulosa va ishlab chiqilgan amaliy tavsiyalardan respublikamizdagi qishloq xo‘jaligi sohasidagi xo‘jalik yurituvchi subyektlarda nomoddiy aktivlarni hisobga olish va tahlil uslubiyoti orqali xo‘jalik subyektining samaradorlikka erishish ko‘rsatkichini ta’minlaydi. Shuningdek, nomoddiy aktivlar hisobi va tahlili uslubiyotini takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalardan oliy ta’lim muassasalaridagi “Moliyaviy hisob” va “Iqtisodiy tahlil” kabi fanlar bo‘yicha o‘quv dasturlari, ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlarni takomillashtirishda foydalanish mumkin.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarning joriy etilishi xo‘jalik yurituvchi subyektlarda nomoddiy aktivlar hisobini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida tashkil etishga yordam berishi hamda ularda nomoddiy aktivlarni tan olish, baholash, buxgalteriya hisobini yuritish, amortizatsiyani hisoblash hamda boshqaruv qarorlari uchun ma’lumotlarni olish imkoniyatini beruvchi moliyaviy hisobotning ishonchlilik darajasini oshirishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Nomoddiy aktivlar hisobi va tahlili uslubiyotini takomillashtirish bo‘yicha olingan ilmiy-uslubiy va amaliy natijalar asosida:

0411-“O‘simliklarning yangi navlariga bo‘lgan huquq bo‘yicha patentlar”, 0412-“Hayvonlarning yangi zotlariga bo‘lgan huquq bo‘yicha patentlar” hamda ularning amortizatsiyasi bo‘yicha 0511-“O‘simliklarning yangi navlariga bo‘lgan huquq bo‘yicha patentlar amortizatsiyasi” va 0512-“Hayvonlarning yangi zotlariga bo‘lgan huquq bo‘yicha patentlar amortizatsiyasi” nomli ishchi schyotlar bo‘yicha taklifi O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi, Toshkent viloyati “TCT Agro cluster” MChJ, Sirdaryo viloyati “Sardoba universal klaster” MChJ va Buxoro viloyati “Buxoro agroklastar” MChJ tomonidan amaliyotga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2023-yil 7-noyabrdagi 07/06/1310-son, Toshkent viloyati “TCT Agro cluster” MChJning 2023-yil 3-oktyabrdagi 01/320-son, Sirdaryo viloyati “Sardoba universal klaster” MChJning 2023-yil 6-oktyabrdagi 01/81-23-son va Buxoro viloyati “Buxoro agroklastar” MChJning 2023-yil 5-oktyabrdagi 17-588-son ma’lumotnomalari). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida 0411-“O‘simliklarning yangi navlariga

bo'lgan huquq bo'yicha patentlar", 0412-"Hayvonlarning yangi zotlariga bo'lgan huquq bo'yicha patentlar" hamda ularning amortizatsiyasi bo'yicha esa 0511-"O'simliklarning yangi navlariga bo'lgan huquq bo'yicha patentlar amortizatsiyasi", 0512-"Hayvonlarning yangi zotlariga bo'lgan huquq bo'yicha patentlar amortizatsiyasi" nomli ishchi schyotlar qishloq xo'jaligida nomoddiy aktivlarning analitik hisobini to'g'ri yuritish, ularning mavjudligi va harakatini nazorat qilish samaradorligini oshirishga xizmat qildi;

qishloq xo'jaligi korxonalarida uchun "amortizatsiyalanuvchi aktivlar" moddasi bo'yicha amortizatsiya me'yorlarini nomoddiy aktivlardan foydalanish muddatlaridan kelib chiqqan holda, seleksiya yutuqlari uchun yillik amortizatsiya me'yorini 4 foiz (yoki xizmat muddati 25 yilga teng), dasturiy ta'minot va ma'lumotlar bazalari uchun 25 foiz (xizmat muddati 4 yil) hamda qishloq xo'jaligi tovarlari belgilari uchun 15 foiz (xizmat muddati 7 yil) belgilash orqali takomillashtirishga oid taklifi O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi, Toshkent viloyati "TCT Agro cluster" MChJ, Sirdaryo viloyati "Sardoba universal klaster" MChJ va Buxoro viloyati "Buxoro agroklastar" MChJ tomonidan amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 2023-yil 7-noyabrdagi 07/06/1310-son, Toshkent viloyati "TCT Agro cluster" MChJning 2023-yil 3-oktyabrdagi 01/320-son, Sirdaryo viloyati "Sardoba universal klaster" MChJning 2023-yil 6-oktyabrdagi 01/81-23-son va Buxoro viloyati "Buxoro agroklastar" MChJning 2023-yil 5-oktyabrdagi 17-588-son ma'lumotnomalari). Ushbu taklifning amaliyotga joriy etilishi nomoddiy aktivlar, jumladan, seleksiya yutuqlari bo'yicha patentlar, dasturiy ta'minot va ma'lumotlar bazalari hamda qishloq xo'jaligida ishlab chiqarilgan mahsulotlar, ish va xizmat (tovar)larning o'ziga xos xususiyatidan kelib chiqib, ularga amortizatsiya hisoblashning me'yorlarini aniqlashtirish imkonini berdi. Mazkur taklifga ko'ra, amortizatsiya me'yorlari ulardan foydalanish muddatlaridan kelib chiqqan holda, seleksiya yutuqlari uchun yillik amortizatsiya me'yorini 4 foiz (yoki xizmat muddati 25 yilga teng), dasturiy ta'minot va ma'lumotlar bazalari uchun 25 foiz (xizmat muddati 4 yil) hamda qishloq xo'jaligi tovarlari belgilari uchun 15 foiz (xizmat muddati 7 yil) belgilandi. Bu esa nomoddiy aktivlarga amortizatsiya hisoblash va uni xarajatlarga to'g'ri taqsimlash tartibining soddalashuviga olib keldi;

qishloq xo'jaligi korxonalarida nomoddiy aktivlar daromadliligi ( $NMA_I$ ), rentabelligi ( $NMA_R$ ) va aylanuvchanligi ( $NMA_T$ ) ko'rsatkichlari asosida nomoddiy aktivlardan foydalanish shartlari ( $NMA_I \geq 1$  so'm,  $NMA_R > 1$  so'm,  $NMA_T \geq 30$  marta) mezonlarini ishlab chiqish orqali samaradorlik tahlilining aniqligini oshirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi, Toshkent viloyati "TCT Agro cluster" MChJ, Sirdaryo viloyati "Sardoba universal klaster" MChJ va Buxoro viloyati "Buxoro agroklastar" MChJ tomonidan amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 2023-yil 7-noyabrdagi 07/06/1310-son, Toshkent viloyati "TCT Agro cluster" MChJning 2023-yil 3-oktyabrdagi 01/320-son, Sirdaryo viloyati "Sardoba universal klaster" MChJning 2023-yil 6-oktyabrdagi 01/81-23-son va Buxoro viloyati "Buxoro agroklastar" MChJning 2023-yil 5-oktyabrdagi 17-588-son ma'lumotnomalari). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida nomoddiy aktivlar daromadliligi,

rentabelligi va aylanuvchanligi ko'rsatkichlaridan foydalanish nomoddiy aktivlardan foydalanish samaradorligini aniq hisoblash imkonini berdi. Nomoddiy aktivlar daromadlilikini tahlil qilish asosida qishloq xo'jaligi korxonalarida bir so'mlik nomoddiy aktivlarga to'g'ri keladigan sof tushumni aniqlash hamda nomoddiy aktivlar rentabellik ko'rsatkichlarini tahlil qilish bir so'mlik nomoddiy aktivlarga to'g'ri keladigan soliq to'lashdan avvalgi foydani aniqlash imkonini berdi;

qishloq xo'jaligi korxonalarida innovatsion ishlanmalarning amalga oshish jarayonlari xususiyatlariga muvofiq keluvchi nomoddiy aktivlarni tan olish, baholash hamda guruhlash asosida intellektual mulk obyektlari hajmini oshirish bo'yicha taklifi O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi, Toshkent viloyati "TCT Agro cluster" MChJ, Sirdaryo viloyati "Sardoba universal klaster" MChJ va Buxoro viloyati "Buxoro agroklastar" MChJ tomonidan amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 2023-yil 7-noyabrdagi 07/06/1310-son, Toshkent viloyati "TCT Agro cluster" MChJning 2023-yil 3-oktyabrdagi 01/320-son, Sirdaryo viloyati "Sardoba universal klaster" MChJning 2023-yil 6-oktyabrdagi 01/81-23-son va Buxoro viloyati "Buxoro agroklastar" MChJning 2023-yil 5-oktyabrdagi 17-588-son ma'lumotnomalari). Ushbu taklifning amaliyotga joriy etilishi qishloq xo'jaligi korxonalarini, jumladan, klasterlarda nomoddiy aktivlarning tan olinishi va baholanishi hamda ular tarkibini to'g'ri shakllantirish (guruhlashtirish), sohada innovatsion ishlanmalarning negizi bo'lgan intellektual mulk obyektlari hajmini oshirish imkonini berdi. Bundan tashqari, nomoddiy aktivlarni baholash asosida ularning jami mablag'lar (aktivlar)dagi ulushini ko'paytirish hamda qishloq xo'jaligi korxonalarida daromadlarni oshirish, shuningdek, buxgalteriya hisobi yuritilishining soddalashuviga olib keldi.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 8 ta, jumladan, 4 ta respublika va 4 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyada muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 16 ta ilmiy ish nashr etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan mahalliy ilmiy jurnallarda 4 ta ilmiy maqola, xorijiy jurnallarda 2 ta ilmiy maqola, xalqaro konferensiyalarda 4 ta va respublika ilmiy-amaliy anjumanlari materiallarida 4 ta tezis hamda 1 ta mualliflik guvohnomasi, 1 ta uslubiy qo'llanma chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, umumiy hajmi 125 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan; tadqiqotning maqsadi va asosiy vazifalari, obyekt va predmeti tavsiflangan; respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan; ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilinib, olingan natijalarni amaliyotga joriy

qilish va nashr etilgan ishlar hamda dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Nomoddiy aktivlar hisobi va tahlilining nazariy va uslubiy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida nomoddiy aktivlarning iqtisodiy mazmuni va ahamiyati, nomoddiy aktivlar hisobining normativ-huquqiy va uslubiy asoslari, nomoddiy aktivlar tahlilining nazariy va uslubiy jihatlari tadqiq qilingan.

Turli normativ hujjatlar va iqtisodchi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida nomoddiy aktivlarga mazmunan bir-biriga yaqin va shaklan turlicha ta'riflar, yondashuvlar va nazariy qarashlar keltirilgan. “Nomoddiy aktivlar” nomli 38-son moliyaviy hisobotning xalqaro standarti (MHXS)da aktiv quyidagicha ifodalangan: “Aktiv – bu shunday resurski: a) oldingi hodisalar natijasida tashkilot tomonidan nazorat qilinadi; b) tashkilot undan kelgusida iqtisodiy naf olishni kutadi”<sup>14</sup>. Mazkur standartda nomoddiy aktivlarga quyidagicha ta'rif berilgan: “Nomoddiy aktiv – bu moddiy-ashyoviy mazmunga ega bo'lmagan identifikatsiyalanadigan nomonetar aktivdir. Bu yerda nomonetar aktivlar deyilganda, mavjud pul mablag'lari va qat'iy yoki aniqlanadigan pul mablag'lari miqdorida olinadigan aktivlar tushuniladi”<sup>15</sup>.

Xorijlik soha mutaxassisi L.P. Krasnova tomonidan “nomoddiy aktivlar – bu moddiy va ashoviy ko'rinishga ega bo'lmagan, xo'jalik subyekti faoliyatida 1 yil dan ortiq muddat foydalaniladigan, daromad keltiruvchi aktivlardir”<sup>16</sup>, deb ta'rif berilgan.

I.Ochilovning fikriga ko'ra, “Intellektual mulklar nomoddiy aktivlarning tarkibi bo'lib, xo'jalik faoliyatida uzoq vaqt mobaynida foydalanish uchun mo'ljallangan moddiy xususiyatga ega bo'lmagan mol-mulk obyektlaridir”<sup>17</sup>. Iqtisodchi olim A.Sotivoldiyev esa “nomoddiy aktivlarni ushlab bo'lmaydigan va sezib bo'lmaydigan korxonaning aktivlari sifatida ta'riflaydi”<sup>18</sup>.

F.G'ulomova quyidagi tushunchani ta'kidlab o'tadi: “Nomoddiy aktivlarga tabiiy-moddiy ko'rinishga ega bo'lmagan va qo'shimcha daromad keltirish imkoniyatini yaratuvchi obyektlar kiradi”<sup>19</sup>.

Yuqorida nomoddiy aktivlar haqida bildirilgan ta'rif va turli yondashuvlar asosida quyidagi mualliflik ta'rifi ishlab chiqildi: *“Nomoddiy aktivlar – bu moddiy-ashyoviy mazmunga ega bo'lmagan, nazorat va identifikatsiya qilinadigan hamda iqtisodiy naf olinishi kutiladigan aktivlardir”*.

Tadqiqotda nomoddiy aktivlarni hisobga olish bo'yicha xalqaro va milliy standartlarning farqli jihatlari va o'zaro bog'liqligi o'rganildi. Quyida buxgalteriya hisobi milliy standartlarida belgilangan nomoddiy aktivlarning tarkibi keltirilgan (1-rasm).

---

<sup>14</sup> “Nomoddiy aktivlar” 38-son MHXS. Mazkur standartdagi aktiv ta'rifi 2018-yilda e'lon qilingan “Moliyaviy hisobotlarni taqdim etishning konseptual asosi”da qayta ko'rib chiqilgan aktiv ta'rifi asosida qayta ko'rib chiqilmagan.


<sup>15</sup> “Nomoddiy aktivlar” 38-son MHXS. Mazkur standart 2018-yilda e'lon qilingan.

<sup>16</sup> Краснова Л.П. Финансы, деньги, кредит. Учебник. – М.: «Юристъ», 2000.

<sup>17</sup> Ochilov I., Qurbonboyev J. Moliyaviy hisob. O'quv qo'llanma. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2007. – 265-b.

<sup>18</sup> Sotivoldiyev A.S. Zamonaviy buxgalteriya hisobi. O'quv qo'llanma. – T.: “BAMA”, 2007. 2-tom.

<sup>19</sup> G'ulomova F.G'. Buxgalteriya hisobi bo'yicha mustaqil o'rganish uchun uchun qo'llanma. – T.: “Iqtisodiyot va huquq dunyosi” nashriyot uyi, 2000. – 229-b.




**1-rasm. Buxgalteriya hisobi milliy standartlarida belgilangan nomoddiy aktivlar tarkibi<sup>20</sup>**

Ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, qishloq xo'jaligi korxonalarini uchun nomoddiy aktivlarni turkumlashda seleksiya yutuqlariga bo'lgan mutlaq huquq hamda tabiiy resurslardan foydalanish huquqining alohida hisob obyekti sifatida tan olinishi mazkur tarmoqda daromadlilik eng yuqori bo'lgan nomoddiy aktivlar salmog'ini yanada oshirish imkoniyatini yaratadi.

Nomoddiy aktivlarni hisobga olishda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) maqsadi va talablari o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, jahon mamlakatlarida mavjud bo'lishi kerak bo'lgan nomoddiy aktivlar haqidagi tavsif ko'rsatkichlarini o'zida namoyon etadi.

Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlarida belgilangan nomoddiy aktivlar tarkibi 2-rasmda keltirilgan.



**2-rasm. Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlarida belgilangan nomoddiy aktivlar tarkibi<sup>21</sup>**

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarida nomoddiy aktivlarga ko'proq huquqiy jihatdan yondashilib, ularning, asosan, aktiv sifatida tan olinishi hamda baholanishiga katta e'tibor qaratiladi.

Dissertatsiyaning **“Nomoddiy aktivlar hisobi tashkil etilishining hozirgi holati va uni moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari talablari asosida takomillashtirish”** deb nomlangan ikkinchi bobida nomoddiy aktivlarni baholash va kiringa olish hisobining hozirgi holati va uni takomillashtirish, nomoddiy

<sup>20</sup> Nomoddiy aktivlarni tasniflash va tan olishga oid me'yoriy hujjatlar asosida muallif ishlanmasi.

<sup>21</sup> Tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi.


aktivlarga amortizatsiya hisoblashning amaldagi holati va uni takomillashtirish, nomoddiy aktivlarni hisobdan chiqarish va moliyaviy hisobotlarda aks ettirishning hozirgi holatini baholash va uni takomillashtirish bo'yicha xulosalar shakllantirilgan, ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Nomoddiy aktivlarni baholash jismoniy va yuridik shaxslarning nomoddiy aktivlarga egalik qilish, shuningdek, ulardan foydalanish yoki uni qo'llashdan foyda olish huquqini nazarda tutadi. Nomoddiy aktivlarni baholashda quyidagi ikki jihatni farqlab olish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz:

*birinchi*, jismoniy yoki yuridik shaxslar tomonidan yangi yaratilgan nomoddiy aktiv obyektlarini baholash;

*ikkinchi*, xo'jalik yurituvchi subyektning uzoq muddatli aktivlari sifatida tan olingan nomoddiy aktivlarni baholash.

Nomoddiy aktivlarni kiringa olishda, foydalanish jarayonida va hisobdan chiqarishda ularni baholash ketma-ketligi 3-rasmda keltirilgan.



**3-rasm. Nomoddiy aktivlarni baholash** <sup>22</sup>

Nomoddiy aktivlarni baholash tartibi ularni kiringa olish vaqtida (boshlang'ich), foydalanish jarayonida, ya'ni xizmat muddati davomida (joriy yoki qayta baholash) hamda hisobdan chiqarilganda, qoldiq baholarda yuritilishini talab etadi.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida amaldagi 21-son BHMSga quyidagi jummalarni kiritish taklif etildi: *“Foydalanishda bo'lgan nomoddiy aktivlarning foydali xizmat muddati aniq bo'lmagan holatda, nomoddiy aktivlarga amortizatsiya hisoblanmaydi. Bunday ko'rinisdagi nomoddiy aktivlar balans qiymatining qoplanadigan qiymatdan ortgan qismi zarar sifatida tan olinishi lozim”*.

Olib borilgan tadqiqotlar asosida qishloq xo'jaligi korxonalar uchun nomoddiy aktivlarni turkumlash tartibi taklif etildi (1-jadval).

Fuqarolik kodeksi (63-bob. O'simliklarning yangi navlari va hayvonlarning yangi zotlariga bo'lgan huquq) hamda “Xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliya-xo'jalik faoliyati buxgalteriya hisobi schyotlar rejasi va uni qo'llash bo'yicha yo'riqnoma” nomli O'zbekiston Respublikasining 21-son buxgalteriya hisobi milliy standartining o'zaro muvofiqligini ta'minlash maqsadida biologik aktivlarni yaratishdagi seleksiya yutuqlari hisobini yuritish uchun quyidagi tahliliy (ishchi) schyotlarni ochish taklif etildi:

<sup>22</sup> Tadqiqot natijasida muallif ishlanmasi.

0411-“O‘simliklarning yangi navlariga bo‘lgan huquq bo‘yicha patent”;

0412-“Hayvonlarning yangi zotlariga bo‘lgan huquq bo‘yicha patent”.

Shuningdek, seleksiya yutuqlari bo‘yicha olingan patent qiymatini belgilangan muddat davomida xarajatlarga muntazam o‘tkazib borish maqsadida kontr-aktiv schyotlarni ham kiritish maqsadga muvofiq.

### 1-jadval

#### Qishloq xo‘jaligi korxonalarini uchun taklif etilayotgan nomoddiy aktivlarni turkumlash tartibi<sup>23</sup>

Amaldagi holat	Taklif etilmoqda
<b>Nomoddiy aktivlar</b>	
Patentlar, litsenziyalar va nou-xau	Seleksiya yutuqlari bo‘yicha patentlar
	Seleksiya yutuqlari bo‘yicha litsenziyalar
	Seleksiya yutuqlari bo‘yicha nou-xau
Savdo markalari, tovar belgilari va sanoat namunalari	Klasterdagi savdo markalari va tovar belgilari
Dasturiy ta‘minot	Qishloq xo‘jaligidagi dasturiy ta‘minot
Yer va tabiat resurslaridan foydalanish huquqlari	Klaster yerlaridan foydalanish huquqlari
	Klaster tabiiy resurslaridan foydalanish huquqlari
Franchayz	Qishloq xo‘jaligida franchayz
Mualliflik huquqlari	Mualliflik huquqlari
Gudvill	Qishloq xo‘jaligida gudvill
Boshqa nomoddiy aktivlar	Qishloq xo‘jaligidagi boshqa nomoddiy aktivlar

0511-“O‘simliklarning yangi navlariga bo‘lgan huquq bo‘yicha patent amortizatsiyasi”;

0512-“Hayvonlarning yangi zotlariga bo‘lgan huquq bo‘yicha patent amortizatsiyasi”. Natijada qishloq xo‘jaligi korxonalarida nomoddiy aktivlar hisobini yuritishda amaldagi schyotlar rejasiga 1-jadvalda keltirilgan o‘zgartirishlar taklif etildi. Albatta, bu qishloq xo‘jaligidagi tadbirkorlik subyektlarining hisob siyosatida ifodalanishi maqsadga muvofiqdir.

Mazkur ishchi schyotlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-son qarorining 3-bandida ko‘rsatilgan vazifalar ijrosini ta‘minlash imkoniyatini beradi. Shuningdek, qishloq xo‘jaligida innovatsion mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) hisobini to‘g‘ri yuritish va ularning mavjudligi hamda harakatini nazorat qilish samaradorligi oshishiga xizmat qiladi.

Qishloq xo‘jaligi korxonalarini uchun taklif etilayotgan 0411-, 0412-, 0511- va 0512-schyotlarning boshqa schyotlar bilan o‘zaro bog‘lanishi 2-jadvalda keltirilgan.

Tadqiqot obyekti bo‘lgan qishloq xo‘jaligi korxonalarida, jumladan, “Sardoba universal klaster” MChJda seleksiya yutuqlaridan foydalanish muddati 5 yil. Uning balans qiymati 20 mln so‘m. Natijada mazkur obyektning dastlabki yil uchun amortizatsiya qiymati (summasi) 8 mln so‘mni tashkil qiladi. Buxgalter tomonidan quyidagi tahliliy o‘tkazmalar beriladi:

*Debet “Xarajatlarni hisobga oluvchi” schyotlar – 8 mln so‘m.*

*Kredit “O‘simliklarning yangi navlariga bo‘lgan huquq bo‘yicha patent*

<sup>23</sup> Muallif ishlanmasi.

amortizatsiyasi” schyoti – 8 mln so‘m.

2-jadval

**Qishloq xo‘jaligi korxonalarida uchun taklif etilayotgan 0411-, 0412-, 0511- va 0512-schyotlarning boshqa schyotlar bilan o‘zaro bog‘lanishi<sup>24</sup>**

Operatsiyaning mazmuni	Debet	Kredit
O‘simliklarning yangi navlariga bo‘lgan huquq bo‘yicha patent sotib olindi	0411	0830
Hayvonlarning yangi zotlariga bo‘lgan huquq bo‘yicha patent sotib olindi	0412	0830
O‘simliklarning yangi navlariga bo‘lgan huquq bo‘yicha patentga amortizatsiya hisoblandi	2010	0511
Hayvonlarning yangi zotlariga bo‘lgan huquq bo‘yicha patentga amortizatsiya hisoblandi	2010	0512
O‘simliklarning yangi navlariga bo‘lgan huquq bo‘yicha patent hisobdan chiqarildi	9220	0411
O‘simliklarning yangi navlariga bo‘lgan huquq bo‘yicha patent amortizatsiyasi hisobdan chiqarildi	0511	9220
Hayvonlarning yangi zotlariga bo‘lgan huquq bo‘yicha patent hisobdan chiqarildi	9220	0412
Hayvonlarning yangi zotlariga bo‘lgan huquq bo‘yicha patentga amortizatsiya hisobdan chiqarildi	0512	9220

Qishloq xo‘jaligi korxonalarida foydalanilayotgan nomoddiy aktivlarning turlari bo‘yicha amortizatsiya hisoblashning turli usullari qo‘llaniladi. Bunda bir turdagi nomoddiy aktiv bo‘yicha (guruhi, turi va boshqalar) faqat bitta usul qo‘llanilishi mumkin.

Demak, korxonaning hisob siyosatiga muvofiq, joriy yil boshida nomoddiy aktivlar uchun amortizatsiyaning bir usuli (to‘g‘ri chiziqli hisoblash usuli) tanlangan bo‘lsa, yil yarmidan yoki ma‘lum hisobot davridan so‘ng boshqa bir usuldan (ishlab chiqarish yoki qoldiqning kamayib borishi usuli) foydalanilmaydi. Chunki bu xo‘jalik subyekting “Hisob siyosati”da tasdiqlanadi va o‘zgartirilmaydi. Amortizatsiya hisoblash usullarining o‘zgarishi buxgalteriya hisobi bo‘yicha me‘yoriy hujjatlardagi o‘zgarishlarga bog‘liq bo‘ladi, deb hisoblaymiz.

Amaliyotda qaysi usul tadbirkorlik subyekti uchun foydaliroq ekanligi buxgalter tomonidan tahlil qilish asosida aniqlanadi.

3-jadvalda “Sardoba universal klaster” MChJda kumulyativ usulda amortizatsiya hisoblash keltirilgan.

3-jadval

**“Sardoba universal klaster” MChJda nomoddiy aktivlarga kumulyativ usulda amortizatsiya hisoblash<sup>25</sup>**

Yillar	Balans qiymati	Yillik amortizatsiya summasi	Jamg‘arilgan amortizatsiya	Qoldiq qiymati
1-yil	20,0	8,0	8,0	12,0
2-yil	20,0	6,4	14,4	5,6
n -yil	0	0	0	0

<sup>24</sup> Muallif ishlanmasi.

<sup>25</sup> 7-son BHMS. “Nomoddiy aktivlar” 46-bandga asosan, muallif ishlanmasi.

Taklif etilayotgan qishloq xo‘jaligi korxonalarini uchun nomoddiy aktivlar bo‘yicha amortizatsiya siyosati agrar sohada faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlari uchun nomoddiy aktivlardan to‘liq foydalanish, ularning qiymatini xarajatlarga mutanosib olib borish hamda hisobdan chiqarish tartibini to‘g‘ri hisoblash imkoniyatini beradi (4-jadval).

#### 4-jadval

### Qishloq xo‘jaligi korxonalarini uchun nomoddiy aktivlar bo‘yicha amortizatsiya siyosati<sup>26</sup>

Nomoddiy aktiv turlari	Xizmat muddati	Yillik amortizatsiya me‘yori
Seleksiya yutuqlari bo‘yicha patentlar	25 yil	4
Seleksiya yutuqlari bo‘yicha litsenziyalar	15 yil	7
Seleksiya yutuqlari bo‘yicha nou-xau	5 yil	20
Qishloq xo‘jaligidagi dasturiy ta‘minot	4yil	25
Klasterdagi savdo markalari va tovar belgilari	10 yil	10
Klaster yerlaridan foydalanish huquqlari	15 yil	7
Klaster tabiiy resurslaridan foydalanish huquqlari	10 yil	10
Qishloq xo‘jaligida franchayz	5 yil	20
Qishloq xo‘jaligi tovarlari belgilari	7 yil	15
Qishloq xo‘jaligida gudvill	10 yil	10
Qishloq xo‘jaligidagi boshqa nomoddiy aktivlar	5 yil	20

Foydalanishda bo‘lgan nomoddiy aktivlar bo‘yicha amortizatsiya me‘yorini mazkur nomoddiy aktivlardan avvalgi mulkdorlar tomonidan foydalanilgan yillar (oylar) soniga kamaytirilgan foydalanish muddatini hisobga olgan holda belgilash ham mumkin. Agar mazkur obyektlardan avvalgi mulkdorlarda amalda foydalanish muddati ushbu obyektlarning boshqa omillarini hisobga olgan holda, bu intellektual mulk obyektidan unumli foydalanish muddati mustaqil ravishda, lekin besh yildan kam bo‘lmagan muddatga belgilanadi.

Tadqiqot obyekti bo‘lgan “Buxoro agroklaster” MChJda balans qiymati 12 mln so‘m bo‘lgan yerdan foydalanish huquqi to‘liq amortizatsiya hisoblanishi natijasida balansdan chiqarilgan:

nomoddiy aktivning boshlang‘ich qiymati hisobdan chiqarilganda:

*Debet 9220- “Boshqa aktivlarning chiqib ketishi” schyoti (yerdan foydalanish huquqi bo‘yicha) – 12 mln so‘m;*

*Kredit 0440- “Yer va tabiat resurslaridan foydalanish huquqi” – 12 mln so‘m.*  
nomoddiy aktiv (yerdan foydalanish huquqi)ning jamg‘arilgan amortizatsiyasi hisobdan chiqarilganda:

*Debet 0540- “Yer va tabiat resurslaridan foydalanish huquqlari amortizatsiyasi” schyoti – 12 mln so‘m;*

*Kredit 9220- “Boshqa aktivlarning chiqib ketishi” schyoti (yerdan foydalanish huquqi bo‘yicha) – 12 mln so‘m;*

*Debet 9220- “Boshqa aktivlarning chiqib ketishi” schyoti.*

Iqtisodchi olim N.Rizayevning intellektual mulk obyektlariga korxonaning

<sup>26</sup> Tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi.

uzoq muddatli aktivlari sifatida qarash bo'yicha fikrlarini qo'llab-quvvatlagan holda, biz ham nomoddiy aktivlar hisobdan chiqarilishi aniq schyotda ifodalanishi maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Bunda 21-sonli BHMSning 3-§-“Asosiy vositalar va boshqa aktivlarning chiqib ketishini hisobga oluvchi schyotlar (9200)” dagi 9220-“Boshqa aktivlarning chiqib ketishi” nomli tranzit schyotda nomoddiy aktivlarning chiqib ketishi bo'yicha yangi ishchi schyot ochilishi va uni 9230-“Nomoddiy aktivlarning chiqib ketishi” deb nomlashni taklif etamiz. Natijada bu taklif asosida amaldagi 21-son BHMSning tegishli bandlariga o'zgartirishlar kiritish ham talab etiladi.

Taklif etilayotgan ushbu schyotning qo'llanilishi natijasida:


*hisobdan chiqarilayotgan nomoddiy aktivlar haqida aniq va ishonchli ma'lumotlar olish;*

*hisobdan chiqarilayotgan nomoddiy aktivlar bo'yicha moliyaviy natijalarni to'g'ri shakllantirish imkoniyati yaratiladi.*

**“Nomoddiy aktivlardan foydalanish samaradorligi tahlili va uning uslubiyotini takomillashtirish”** deb nomlangan uchinchi bobda nomoddiy aktivlar tahlilini o'tkazishning o'ziga xos xususiyatlari va hozirgi holatini baholash hamda tahlil uslublarini takomillashtirish, nomoddiy aktivlardan foydalanish samaradorligi tahlilini rivojlantirish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Nomoddiy aktivlarni tahlil qilish manbalari bo'yicha huquqiy asoslar shakllantirilgan bo'lsa-da, ushbu obyektlarni tahlil qilishning yagona uslubiyotini tashkil qiluvchi quyidagi omillarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq, jumladan, nomoddiy aktivlarning korxonadagi joylashuvi, ularning holati, tarkibi, hajmi, samaradorligi va natijaviyligini baholash.

Nomoddiy aktivlar tahlilining axborot manbasi, yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, “Moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot” (Buxgalteriya balansi (1-shakl)), hisobotga ilovalar, ma'lumotnomalar va izohlar hisoblanadi. Ushbu manbalardan olingan ma'lumotlar asosida nomoddiy aktivlarni tahlil qilish orqali ko'rsatkichlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik aniqlanadi. Nomoddiy aktivlarni tahlil qilishning zaruriyati 4-rasmda keltirilgan.




#### 4-rasm. Nomoddiy aktivlarni tahlil qilishning zaruriyati<sup>27</sup>

Nomoddiy aktivlar bo'yicha ko'rsatkichlar tizimi xo'jalik subyekting

<sup>27</sup> Muallif ishlanmasi.

moliya-xo‘jalik faoliyatini chuqur o‘rganish va ularning moliyaviy jihatdan yanada barqaror bo‘lishiga zamin yaratadi. Tadbirkorlik subyektining iqtisodiy salohiyati iqtisodiy tahlilda keng qo‘llaniladigan muhim ko‘rsatkichlardan bo‘lib, nomoddiy aktivlar ham ushbu ko‘rsatkichlar tarkibiga kiritilishi lozim. Nomoddiy aktivlar bo‘yicha iqtisodiy salohiyatni ifodalovchi muhim ko‘rsatkichlar sifatida quyidagilar belgilanadi (5-rasm):

*nomoddiy aktivlar holatini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar;*  
*nomoddiy aktivlar samaradorligini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar;*  
*nomoddiy aktivlar natijaviyligini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar.*



**5-rasm. Nomoddiy aktivlarni tahlil qilish bosqichlari**<sup>28</sup>

Ushbu rasmdan ko‘rinib turibdiki, nomoddiy aktivlar tahlili uslubiyoti quyidagi ko‘rsatkichlar haqida ma’lumotlar olish, tahlil qilish hamda samarali qarorlar qabul qilish imkonini beradi:

*nomoddiy aktivlarning tarkibiy tuzilishi bo‘yicha o‘zgarishlarni baholash;*  
*nomoddiy aktivlarning holati, harakati va tarkibini baholash;*  
*nomoddiy aktivlarga mulkiy egalik va tasarruf etish huquqining o‘zgarishlariga baho berish.*

Tadqiqot obyekti sifatida tanlab olingan aksiyadorlik jamiyatlarida nomoddiy aktivlarning uzoq muddatli aktivlarga nisbatan hajmi 2022-yilda 0,01 dan 25,6 gacha oraliq‘ida tebrangan. Taklif etilgan ko‘rsatkich shartlari ( $NMA_1 > 5,0$ ) bo‘yicha eng yuqori darajali nomoddiy aktivlarga ega bo‘lgan korxonalariga “O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” aksiyadorlik jamiyati (15,4 %) va “Qarshi markaziy buyum savdo kompleksi” aksiyadorlik jamiyati (25,6 %)ni kiritish mumkin (5-jadval).


Me‘yor darajasidagi ( $NMA_1 > 3$ ) korxonalariga O‘zbek geologiya qidiruv AJ (3,9 foiz) hamda “Dehqonobod kaliy zavodi” AJ (4,0 foiz) korxonalarini kiradi. Shuningdek, past ko‘rsatkichli ( $NMA_1 < 0,8$ ) korxonalariga “Uz-Dong Won Ko” AJ qo‘shma korxonasi (0,92 foiz) hamda “Andijonyog‘moy” AJ (0,55 foiz) to‘g‘ri keladi. “O‘zavtosanoat” AJ (0,01 foiz), “Sardoba universal klaster” MChJ (0,007) va “Buxoro agroklaster” MChJ (0,002) nomoddiy aktivlar hajmi bo‘yicha eng past ko‘rsatkichlarga ega korxonalar hisoblanadi.

<sup>28</sup> M.Pardayevning “Moliyaviy tahlil” o‘quv qo‘llanmasi hamda N.K. Rizayevning “Intellektual mulk obyektlari hisobi va tahlili metodologiyasini tashkil etish” mavzusidagi iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini (DSc) olish uchun yozilgan dissertatsiyasi (2019-yil) asosida muallif ishlanmasi.

Nomoddiy aktivlarning jami aktivlarga nisbatan salmog‘i<sup>29</sup>

Aksiyadorlik jamiyatlari va mas‘uliyati cheklangan jamiyatlar nomi	Nomoddiy aktivlar, ming so‘m	Jami aktivlarga nisbatan, %
	<i>(Buxgalteriya balansi, 1-shakl, 022-satr x 1-shakl, 400-satr)</i>	
“O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJ	2341536634	15,4
“Hududgazta‘minot” AJ	43673167	0,52
“O‘zbek geologiya qidiruv” AJ	490233481	3,9
“Uz-Dong Won Ko” AJ qo‘shma korxonasi	650745	0,92
“Andijonyog‘moy” AJ	556007	0,55
“O‘zavtosanoat” AJ	68203	0,01
“O‘zagroservis” AJ	144173	0,02
“UzAuto Motors” AJ	125548548	0,42
“Qarshi markaziy buyum savdo kompleksi” AJ	2633545	25,6
“Dehqonobod kaliy zavodi” AJ	242376129	4,0
“Sardoba universal klaster” MChJ	176070	0,007
“Buxoro agroklastar” MChJ	316103	0,002

M.Pardayev va N.Rizayevlar tomonidan nomoddiy aktivlar (intellektual mulk obyektlari) samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar tizimi bo‘yicha olib borilgan izlanishlarni o‘rganish natijasida quyidagi ko‘rsatkich tavsiya etildi (6-rasm).

**6-rasm. Nomoddiy aktivlar samaradorligi ko‘rsatkichlari<sup>30</sup>**

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida ushbu ko‘rsatkichlarning ahamiyati va ular o‘rtasidagi bog‘liqlik aniqlandi.

*Birinchi*, nomoddiy aktivlarning daromadliligi. Mazkur ko‘rsatkich korxonadagi bir so‘mlik nomoddiy aktivga qancha daromad (mahsulotni sotishdan sof tushum) to‘g‘ri kelishini ifodalaydi:

$$NMA_P = YaD_p / NMA_A \quad (1)$$

Bu yerda:

$YaD_p$  – yalpi daromad;  $NMA_A$  – nomoddiy aktivlarning yillik o‘rtacha qiymati.

Nomoddiy aktivlar tahlili uchun asosiy axborot manbasi sifatida “Buxgalteriya balansi” (1-shakl) va “Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot” (2-shakl)dan ma‘lumotlar olindi.

(2-shakl, 030-satr / 1-shakl, 022-satr (yil boshi + yil oxiri / 2)).

<sup>29</sup> Aksiyadorlik korxonalar ma‘lumotlari asosida muallif ishlanmasi. 2023-yil.

<sup>30</sup> Ilmiy tadqiqot asosida muallif ishlanmasi.

<sup>31</sup> M.Pardayevning “Moliyaviy hisobot tahlili” o‘quv qo‘llanmasi asosida muallif ishlanmasi.

*Ikkinchi*, nomoddiy aktivlar rentabelligi (foydaliligi). Ushbu ko‘rsatkich bir so‘m nomoddiy aktivga to‘g‘ri keladigan sof foyda miqdorini aniqlash imkonini beradi:

$$NMA_R = SF_I / NMA_A^{32} \quad (2)$$

Bu yerda:

SF<sub>I</sub> – sof foyda;

NMA<sub>A</sub> – nomoddiy aktivlarning yillik o‘rtacha qiymati.

“Buxgalteriya balansi” (1-shakl) va “Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot” (2-shakl) ko‘rsatkichni tahlil qilishning manbai hisoblanadi.

(2-shakl, 270-satr / 1-shakl, 022-satr (yil boshi + yil oxiri / 2)).

*Uchinchi*, nomoddiy aktivlar aylanuvchanligi. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida keltirib o‘tilgan ushbu ko‘rsatkich asosida nomoddiy aktivlarning tahlil davrida necha marta aylanish tezligi va unga baho berish imkoniyati yaratiladi:

$$NMA_P = MST_f / NMA_A^{33} \quad (3)$$

Bu yerda:

MST<sub>f</sub> – mahsulot sotishdan sof tushum;

NMA<sub>A</sub> – nomoddiy aktivlarning yillik o‘rtacha qiymati.

“Buxgalteriya balansi” (1-shakl) va “Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot” (2-shakl) tahlil qilinayotgan ko‘rsatkichning ma‘lumotlar olish manbai sifatida xizmat qiladi.

(2-shakl, 010-satr / 1-shakl, 022-satr (yil boshi + yil oxiri / 2)).

Ushbu ko‘rsatkichlar “Sardoba universal klaster” MChJning moliyaviy ma‘lumotlari asosida tahlil qilindi (6-jadval).

## 6-jadval

### “Sardoba universal klaster” MChJda nomoddiy aktivlar samaradorlik ko‘rsatkichlari tahlili<sup>34</sup>

Ko‘rsatkichlar nomi	2020-yil boshiga	2021-yil boshiga	2022-yil oxiriga	2022-yilda 2020-yilga nisbatan o‘shish (kamayish) darajasi	
				summada	foizda
Mahsulot (ish, xizmat)ni sotishdan tushum	30659527	41423511	5179493	-25480034	16,9
Yalpi daromad	8893281	9122457	942815	-7950466	10,6
Sof foyda	1747039	1920812	349521	-1397518	20,0
Nomoddiy aktivlarning yillik o‘rtacha qiymati	176070	144523	119714	-56356	68,0
Nomoddiy aktivlarning daromadliligi	50,5	63,1	7,9	-42,6	15,6
Nomoddiy aktivlar rentabelligi (foydaliligi)	992	1329	292	-700	29,4
Nomoddiy aktivlar aylanuvchanligi	174,1	286,6	43,3	-130,8	24,9

<sup>32</sup> O‘sha manba asosida muallif ishlanmasi.

<sup>33</sup> M.Pardayevning “Moliyaviy hisobot tahlili” o‘quv qo‘llanmasi hamda N.K. Rizayevning “Intellectual mulk obyektlari hisobi va tahlili metodologiyasini tashkil etish” mavzusidagi iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati (2019-yil) asosida muallif ishlanmasi.

<sup>34</sup> “Sardoba universal klaster” MChJning moliyaviy hisobot ma‘lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Tahlil qilinayotgan “Sardoba universal klaster” MChJda nomoddiy aktivlarning samaradorlik ko‘rsatkichlarini ijobiy deb baholab bo‘lmaydi. Chunki korxonadagi asosiy ko‘rsatkichlar, ya’ni mahsulot sotishdan tushum, yalpi daromad va sof foyda ko‘rsatkichlari hisobot yili boshiga nisbatan kamayish tendensiyasiga ega. Natijada nomoddiy aktivlar daromadliligi (yil boshida 1 so‘mlik nomoddiy aktivlarga 50,5 so‘m to‘g‘ri kelgan va yil oxirida bu 7,9 so‘mga tushib qolgan), rentabelligi (foydaliligi) (yil boshida 992 foiz va yil oxirida 292 foizni tashkil qilgan) hamda aylanuvchanligi (yil boshida 5051 so‘m va yil oxirida 787 so‘mga teng) ko‘rsatkichlar pasayishiga olib kelgan.

Xulosa qilish mumkinki, korxonaning moliyaviy natijalari yetarli va hattoki yuqori miqdorga ega. Bu esa nomoddiy aktivlarning samaradorligi bir necha barobar yaxshi ko‘rsatkichlarga ega bo‘lishini ta’minlamoqda. Kelgusida korxonada ushbu nomoddiy aktivlar miqdori va uning korxonada aktivlariga nisbatan ulushini oshirib borish talab etiladi. Eng muhimi, mazkur nomoddiy aktivlar ishtirokidagi tushum, yalpi daromad va sof foyda miqdorini aniqlash lozim. Bu esa ushbu nomoddiy aktivlar haqida aniq va ishonchli ma’lumotlar olishni ta’minlaydi.

Nomoddiy aktivlar samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlarni tahlil qilish va baholash bo‘yicha mezonlar taklif etilmoqda (7-jadval). Ushbu mezonlarga ularning daromadliligi ( $NMA_I$ ), foydaliligi ( $NMA_R$ ) hamda aylanuvchanligi ( $NMA_T$ ) asos qilib olindi.

## 7-jadval

### Nomoddiy aktivlar samaradorligini baholash mezonlari<sup>35</sup>

Ko‘rsatkichlar	Shartlarning bajarilishi	Izoh
Nomoddiy aktivlarning daromadliligi	$NMA_I \geq 1$ so‘m	1 so‘m NMAga to‘g‘ri keladigan daromad miqdori aniqlanadi
Nomoddiy aktivlarning foydaliligi (rentabelligi)	$NMA_R > 1$ so‘m	1 so‘m NMAga to‘g‘ri keladigan sof foyda miqdori aniqlanadi
Nomoddiy aktivlarning aylanuvchanligi	$NMA_T \geq 30$ marta	NMA tahlil davrida necha marta aylanish tezligi aniqlanadi

Tavsiya etilayotgan ko‘rsatkichlar bo‘yicha barcha shartlarning bajarilishi katta yoki teng bo‘lishi talab etiladi ( $NMA_I \geq 1$  so‘m,  $NMA_R > 0,1$ ,  $NMA_T \geq 30$  marta).

Taklif etilayotgan tahlil uslubiyotida nomoddiy aktivlarning daromadliligi ko‘rsatkichi korxonada 1 so‘m nomoddiy aktivga to‘g‘ri keladigan daromad miqdorini aniqlash, ularning foydaliligi (rentabelligi) ko‘rsatkichini topish asosida 1 so‘m nomoddiy aktivlarga to‘g‘ri keladigan sof foyda miqdorini belgilash hamda nomoddiy aktivlarning aylanuvchanligi ko‘rsatkichlarini tahlil qilish ularning tahlil davri ichida necha marta aylanish tezligini aniqlash imkonini beradi.

Tahlil qilish jarayonida har bir ko‘rsatkich bo‘yicha shartlarning bajarilishiga umumiy baho beriladi va boshqaruv qarorlarini qabul qilishda ishonchli ma’lumotlar sifatida namoyon bo‘ladi.

<sup>35</sup> Muallif ishlanmasi.

Nomoddiy aktivlarning samaradorlik ko'rsatkichlari bo'yicha taklif etilgan baholash mezonlarini tadqiqot obyektlarida qo'llash va baholash natijasi quyidagi 8-jadval ma'lumotlarida keltirilgan.

## 8-jadval

### Nomoddiy aktivlar samaradorligi tahlili<sup>36</sup>

Korxonalar	Samaradorlik ko'rsatkichlari	
	daromadligi	foydaliligi
“O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJ	8,6	1,6
“Hududgazta'minot” AJ	220	104
“O‘zbek geologiya qidiruv” AJ	1,0	0,4
“Uz-Dong Won Ko” AJ qo'shma korxonasi	252,5	106,25
“Andijonyog'moy” AJ	223,9	181,8
“O‘zavtosanoat” AJ	0	0
“O‘zagroservis” AJ	0	0,58
“UzAuto Motors” AJ	211	106
“Qarshi markaziy buyum savdo kompleksi” AJ	0,66	0,2
“Dehqonobod kaliy zavodi” AJ	3,61	1,25
“Sardoba universal klaster” MChJ	4236	125

Tahlil ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, nomoddiy aktivlarning samaradorlik ko'rsatkichlari tanlab olingan korxonalarda turlicha. Nomoddiy aktivlar samaradorligi bo'yicha ko'rsatkichlarni deyarli aniqlash mumkin. Chunki korxonalarda mahsulot sotishdan tushum olish va ushbu ko'rsatkichga nisbatan nomoddiy aktivlar ta'siri aniqlanadi. Masalan, yuqori ko'rsatkichlar “Hududgazta'minot” AJ (1 so'm nomoddiy aktivga nisbatan tushum miqdori 220 so'mni tashkil etadi), “Uz-Dong Won Ko” AJ qo'shma korxonasi (252 so'm), “Andijonyog'moy” AJ (223,9 so'm) va “Sardoba universal klaster” MChJda (4236 so'm) kuzatilmoqda.

Lekin foydalilik ko'rsatkichlari bo'yicha “O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJ, “Hududgazta'minot” AJ, “O‘zavtosanoat” AJ, “UzAuto Motors” AJ va “Qarshi markaziy buyum savdo kompleksi” AJning sof foyda o'rniga moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotlarining zarar qismida summalar aks ettirilganligi, ya'ni ushbu korxonalar zarar bilan yakunlanganligi tufayli nomoddiy aktivlarning rentabellik ko'rsatkichlari aniqlanmay qoldi. Ushbu sof tushumga ega bo'lgan “Andijonyog'moy” AJda esa 1 so'mlik sof foydaga 181 so'mlik nomoddiy aktivlar to'g'ri kelgan. Shuningdek, bu ko'rsatkich qishloq xo'jaligi sohasidagi “Sardoba universal klaster” MChJda ham ijobiy holatda ekanligini ko'rish mumkin. Mazkur korxonada nomoddiy aktivlar rentabelligi 125 foizni tashkil etadi.

## XULOSA

Nomoddiy aktivlar hisobi va tahlili uslubiyoti bo'yicha olib borilgan ilmiy-nazariy va amaliy tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Bizning fikrimizcha, kelgusida tadbirkorlik subyektlarida jami mablag'larga nisbatan nomoddiy aktivlar miqdorini oshirish va ularni hisobga olishda

<sup>36</sup> Ushbu ishlanma uchun O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi tomonidan 2018-yil 23-iyulda №DGU 05598-sonli guvohnoma (patent) olingan.

quyidagilarga e'tibor qaratish zarur:

*uzoq muddatli mablag'lar sifatida nomoddiy aktivlarni tan olish va ularning qiymatini aniq baholash;*

*nomoddiy aktivlar hajmini oshirish bo'yicha turli litsenziya shartnomalariga ega bo'lish.*

2. Nomoddiy aktivlar haqida keltirilgan turli yondashuvlar asosida quyidagi mualliflik ta'rifi ishlab chiqildi: *"Nomoddiy aktivlar – bu moddiy-ashyoviy mazmunga ega bo'lmagan, nazorat va identifikatsiya qilinadigan hamda iqtisodiy naf olish kutiladigan aktivlardir"*.

3. Nomoddiy aktivlar tahlili uslubiyoti quyidagi yondashuv asosida yanada takomillashtirildi: *"Nomoddiy aktivlar tahlili uslubiyoti – bu korxonalaridagi mavjud nomoddiy aktivlar holati va tarkibi hamda samaradorligini o'rganish, muayyan omillarning ta'sirini aniqlash va o'lchash, tahliliy materiallarni jamlash va qayta ishlash asosida shakllantirilgan xulosa va tavsiyalar ko'rinishidagi tizimdir"*.

4. Nomoddiy aktivlarni hisobga olish yoki tahlil qilishning huquqiy asoslari shakllantirilgan bo'lsa-da, amaliyotda ular haqidagi ma'lumotlarni takomillashtirishda yechimini kutayotgan muammolar mavjud. Buning sababini quyidagilar bilan izohlash mumkin:

*birinchi*, nomoddiy aktivlarni buxgalteriya hisobida olish tartibi hisob tizimining dastlabki bosqichida (*tan olish, turkumlash, baholash, kiringa olish, amortizatsiya hisoblash, hisobdan chiqarish, inventarizatsiya qilish, moliyaviy hisobotlarda aks ettirish tartibi*);

*ikkinchi*, nomoddiy aktivlarni buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlarda aks ettirish jarayonining to'liq shakllanmaganligi mazkur obyektlarning tahlil uslubiyotida ham yagona uslubiyotning yetarli emasligidan dalolat beradi (*nomoddiy aktiv holati, tarkibi, hajmi, samaradorligi*).

5. Bizning fikrimizcha, nomoddiy aktivlarni tahlil qilish uslubiyoti, asosan, quyidagilarni o'z ichiga oladi:

nomoddiy aktivlar hajmi, tarkibi, dinamikasi, tuzilishi va holatining tahlili;

nomoddiy aktivlarning foydali xizmat muddati va huquqiy jihatdan himoyalaniş tahlili;

nomoddiy aktivlardan samarali foydalanish tahlili.

6. Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, nomoddiy aktivlarni qayta baholash uchun yillik indeksleri e'lon qilib borilishi kerak. Shu maqsadda nomoddiy aktivlarni guruhlariga ajratgan holda, qayta baholash indeksleri taklif etildi. Ushbu qayta baholash indeksleri nomoddiy aktivlar qiymatini joriy bozor bahosiga yaqinlashtirish imkonini beradi. Boshqa tomondan esa har yili ularning bozor qiymatini aniqlashdagi xarajatlarini qisqartirishga erishiladi.

Tadqiqotlar natijasiga asoslanib, biz nomoddiy aktivlarning foydali xizmat muddatini qayta ko'rib chiqishni taklif etamiz. Tadbirkorlik subyektida aniq foydali xizmat muddatiga ega nomoddiy aktivlarning foydali xizmat muddati kamida har moliyaviy yilning yakunida qayta ko'rib chiqilishi lozim.

Ushbu nomoddiy aktivlarning foydali xizmat muddatidagi o'zgarishlari 8-son BHXS "Hisob siyosati, hisob bahodagi o'zgarishlar va xatolar" deb nomlangan xalqaro standartga asosan, hisob baholaridagi o'zgarishlar sifatida tan olinadi.

Mazkur hisob baholaridagi o'zgarishlarni istiqbolli (perspektiv) ko'rinishda ifodalash maqsadga muvofiqdir.

7. Tadqiqotda amaldagi 21-son BHMSga quyidagi jummalarni kiritish taklif etildi: *“Foydalanishda bo'lgan nomoddiy aktivlarning foydali xizmat muddati aniq bo'lmagan holatda nomoddiy aktivlarga amortizatsiya hisoblanmaydi. Bunday ko'rinishdagi nomoddiy aktivlar balans qiymatining qoplanadigan qiymatdan ortgan qismi zarar sifatida tan olinishi lozim”*.

8. Nomoddiy aktivlar haqidagi ma'lumotlarni moliyaviy hisobotlarda ham aks ettirish maqsadida amaldagi “Moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot” (Buxgalteriya balansi, 1-shakl)ga quyidagicha o'zgartirish kiritish zarur. Ya'ni amaldagi buxgalteriya balansi shakli aktiv tomonining birinchi bo'limi “Uzoq muddatli aktivlar” 010-satr “Asosiy vositalar” bilan ifodalanadi. Ushbu balansning 010-satirini “Nomoddiy aktivlar” deb nomlash taklif etildi.

9. Nomoddiy aktivlar tahlilini o'tkazish va boshqaruv qarorlarini qabul qilishdagi xalqaro tajribalar ularning holati bo'yicha formula va baholash mezonlari ishlab chiqilganligi, nomoddiy aktivlarning uzoq muddatli aktivlardagi salmog'i, nomoddiy aktivlarning korxonaga jami aktivlardagi ulushi, ularning korxonaga o'z va qarz mablag'lari hisobiga manbalanishi, kelib tushishi, chiqib ketishi, intensiv foydalanish, amortizatsiya va yangilanish muddati koeffitsiyentlari asosida tahlil qilish imkoniyatini ta'minlaydi.

10. Nomoddiy aktivlarning samaradorlik ko'rsatkichlari tahlili bo'yicha baholash mezonlari va ularga oid omillar tahlili uslubiyotini ishlab chiqish, nomoddiy aktivlarning daromadliligi, foydaliligi va aylanuvchanligi ko'rsatkichlarini tahlil qilish va ularni baholash mumkin.

Mazkur ilmiy taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy qilinishi moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida buxgalteriya hisobining yangi obyektlari shakllanishi va ularning samarali tahlil qilinishiga xizmat qiladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ № DSc.03/10.12.2019.I.16.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ  
ЭКОНОМИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

---

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ АГРАРНЫЙ  
УНИВЕРСИТЕТ**

**КАДИРОВ САХОБИДДИН ШАРОФОВИЧ**

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ УЧЕТА И АНАЛИЗА  
НЕМАТЕРИАЛЬНЫХ АКТИВОВ**

**08.00.08 – Бухгалтерский учет, экономический анализ и аудит**

**АВТОРЕФЕРАТ**

**диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам**

**Ташкент – 2024 год**

**Тема диссертации доктора философии (Doctor of Philosophy) зарегистрирована под номером В2021.2.PhD/Iqt1718в Высшей аттестационной комиссии.**

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном аграрном университете.

Автореферат диссертации опубликован на трех языках (узбекский, русский и английский (резюме) на веб-сайте научного Совета ([www.tsue.uz](http://www.tsue.uz)) и информационно-образовательном портале «ZiyoNet» ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)).

**Научный руководитель:**

**Ризаев Нурбек Кадилович**  
доктор экономических наук, профессор

**Официальные оппоненты:**

**Абдусаломова Нодира Баходировна**  
доктор экономических наук, профессор

**Авлокулов Анвар Зиядуллаевич**  
доктор экономических наук, профессор

**Ведущая организация:**

**Андижанский институт сельского хозяйства  
и агротехнологий**

Защита диссертации состоится в \_\_\_\_ часов « \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2024 года на заседании научного совета №DSc.03/10.12.2019.I.16.01 по присуждению ученых степеней при Ташкентском государственном экономическом университете Адрес: 100066, город Ташкент, улица Ислама Каримова, д. 49. Тел.: (99871) 239-28-72, факс: (99871) 232-43-51, e-mail: [info@tsue.uz](mailto:info@tsue.uz)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного экономического университета (регистрационный номер № \_\_\_\_). Адрес: 100066, город Ташкент, улица Ислама Каримова, д. 49. Тел.: (99871) 239-28-72, факс: (99871) 239-43-51, e-mail: [info@tsue.uz](mailto:info@tsue.uz).

Автореферат диссертации разослан « \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2024 года.  
(протокол реестра № \_\_\_\_ от « \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2024 года).

**М.П. Эшов**

Председатель научного совета по  
присуждению ученых степеней,  
д.э.н., профессор

**У.В. Гафуров**

Секретарь научного совета по  
присуждению ученых степеней,  
д.э.н., профессор

**С.К. Худойкулов**

Председатель научного семинара  
при научном совете по  
присуждению ученых степеней,  
д.э.н., профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** В мире при развитии инновационных процессов большое внимание уделяется целевому и эффективному использованию нематериальных активов. В развитых странах наблюдается тенденция увеличения нематериальных активов. В соответствии со статистическими данными, «темпы роста нематериальных активов остаются выше 15 процентов в год, в том числе 30 процентов в Китае, 7-10 процентов в США и 5 процентов в Германии. За последние десять лет выпущены в обращение объекты нематериальных активов на сумму 1,2 млрд. долларов США. В результате совокупные активы субъектов предпринимательства, осуществляющих свою деятельность в экономически развитых странах, превысили сумму в 120,0 трлн. долларов США, из которых 63,6 трлн. долларов (53,0 процента) приходится на активы в материальном выражении, т.е. основные средства, ТМЗ и денежные средства. Остальные активы на сумму 56,4 трлн. долларов США (47,0 процента) приходится на нематериальные активы, то есть патенты, ноу-хау, программные продукты, товарные знаки и т.д.»<sup>37</sup>. В странах мира все более актуальной становится проблема организации учета нематериальных активов на основе международных стандартов и эффективного использования его информации.

В мире проводятся научные исследования, направленные на совершенствование организации учета и анализа нематериальных активов в условиях применения международных стандартов финансовой отчетности. Проводятся всесторонние исследования, направленные на приведение учета нематериальных активов в соответствие со стандартами финансовой отчетности, совершенствование порядка оценки нематериальных активов в бухгалтерском учете, совершенствование теоретических и методических аспектов отражения и анализа нематериальных активов в финансовой отчетности, совершенствование методов учета нематериальных активов, совершенствование учета нематериальных активов в сельскохозяйственных предприятиях.

В Узбекистане особое внимание уделяется научным исследованиям по совершенствованию теоретических и практических основ бухгалтерского учета, аудита и анализа нематериальных активов. В результате этих исследований совершенствуются вопросы классификации нематериальных активов, их признания, оценки, организации и ведения учета, их отражения и анализа в финансовой отчетности с целью расширения информационных возможностей для пользователей. Однако в странах мира развитие нематериальных активов находится на разном уровне или требования, установленные международными стандартами финансовой отчетности (МСФО), приводят к тому, что результаты, достигнутые на международном уровне по их учету и анализу, реализуются не в полной мере. На сегодняшний день на основе международного опыта по учету необходимо проводить научные исследования по методам признания, оценки, учета прав на

---

<sup>37</sup> Brand Finance Nation Brands 2022. <http://brandfinance.com/who-we-are/our-story/>.

нематериальные активы, расчета амортизации и отражения в финансовой отчетности, а также их анализа.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит реализации задач, определенных в Законе Республики Узбекистан “О бухгалтерском учете”, указе Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № УП-60 “О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы”, постановлении Президента Республики Узбекистан от 24 февраля 2020 года № ПП-4611 “О дополнительных мерах по переходу на международные стандарты финансовой отчетности”, постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан от 19 мая 2017 года № 302 “О реализации мер по совершенствованию организации, управления и финансирования научно-исследовательской деятельности”, а также других нормативно-правовых актах, относящихся к деятельности по бухгалтерскому учету и анализу.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики.** Данное диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетными направлениями развития науки и технологий I. «Духовное, нравственное и культурное развитие демократического и правового общества, формирование инновационной экономики».

**Степень изученности проблемы.** В рамках данной темы такие зарубежные ученые, как Д.Андриссен, Э.Арене, М.Бернард, Ш.Бред, Э.Брукинг, Р.Каплан, П.Лернер, Д.Левин, Д.Нортон, М.Полани, А.Полторак, К.Петер, Ф.Риккери, Т.Ричард, А.Стюарт, К.Свейби, Р.Тиссен, В.Ф.Палий, Л.П.Краснова<sup>38</sup> в своих работах исследовали принципы учета нематериальных активов, теоретические и методологические основы оценки и анализа; такие ученые, как В.Алексеев, М.Баканов, П.Безруких, С.Барнгольц, Г.Бромберг, Р.Будник, А.Григорьева, Е.Далинина, Н.Карзаева, В.Ковалев, А.Козырев, Б.Леонтьев, С.Валдайцев, Е.Оркина, А.Шеремет, Е.Юшков<sup>39</sup> исследовали

---

<sup>38</sup>Andriessen D.TissenR. Weightless Wealth: Find Your Real Value in a Future of Intangible Assets. Financial Times Prentice Hall, 2000. Bernard Marr. Perspectives on Intellectual Capital. Elsevier Butterworth Heinemann, 2005., Brad, ShermanThe making of modern intellectual property law: the British experience, 1999. 1760–1911. Cambridge University Press. p. 207. ISBN 978-0-521-56363-5., Брукинг Э. Интеллектуальный капитал / Пер. с англ. Под ред. Л.Н. Ковалик. - СПб.: Питер, 2001. с-256. Levine, David; Michele Boldrin (2008-09-07). Against intellectual monopoly (PDF). Cambridge University Press. ISBN 978-0-521-87928-6..Peter K (2007). Intellectual Property and Information Wealth: Copyright and related rights. Greenwood Publishing Group. p. 346. ISBN 978-0-275-98883-8.,RicceriFederica. Intellectual Capital and Knowledge Management: Strategic Management of Knowledge Resources. Routledge, 2008. Alexander Poltorak, Paul Lerner (2002). Essentials of intellectual property. John Wiley & Sons. Inc. © 2002 New York. Brooking A (1996).. Motta E.A / Taxonomy of Intellectual Capital and Methodology for Auditing It/17th Annual National Business Conference, McMaster University, Hamilton, Ontario, Canada. Jan 24-26, 1996.;Каплан Р.С. Сбалансированная система показателей. От стратегии к действию .Пер. с англ. - М: ЗАО Олимп-бизнес, 2003. - 304с, Sveiby K.E. Intellectual Capital and Knowledge Management. 1998.-213 p. Richard T. De George, "Intellectual Property Rights," in The Oxford Handbook of Business Ethics, by George G. Brenkert and Tom L. Beauchamp, vol. 1, 1st ed. (England: OxfordUniversityPress), 417. Стюарт Томас А. Интеллектуальный капитал. Новый источник богатства организаций / Пер. с англ. В. Ноздриной. -М.: Поколение, 2007. – 368 с. Stewart T.A. IntellectualCapital. TheNewWealthofOrganizations. NewYork: CurrencyDoubleday, 1997.;В.Ф.Палий «Международные стандарты учета и финансовой отчетности». (Учебник). Москва ИНФРА-М 2007.;Краснова Л.П. «Финансы, деньги, кредит». Учебник. М.: Юристь, 2000.

<sup>39</sup>Алексеев В.И. Обеспечение прав организации на результаты интеллектуальной деятельности: Методические рекомендации / В.И.Алексеев. - М.: «Патент», 2013. 248 с. Баканов М. И., Шеремет А. Д. Теория экономического анализа. М.: Финансы и статистика, 2007., Безруких П.С.Бухгалтерский учет, Учебник. - 4-е

вопросы организации бухгалтерского учета и его отражения в финансовой отчетности с целью усиления правовой защиты нематериальных активов.

Что касается определений и подходов, представленных зарубежными специалистами, ученый-экономист В.Ф.Палий представил данные об амортизации, обесценении нематериальных активов, создании резервов, а также “учету амортизации нематериальных активов, методам расчета амортизации, сроку полезного использования, требованиях к определению, оценке нематериальных активов, их переоценке и других аспектах нематериальных активов” по МСФО №37 и МСФО №38<sup>40</sup>.

В Узбекистане также проводились научные исследования по учету, анализу и аудиту нематериальных активов. В результате в этой области был опубликован ряд научных статей, монографий, учебных пособий и учебников. Среди них следует упомянуть научные исследования таких ученых, как Р.Д.Дусмуратов, А.К.Ибрагимов, И.Н.Исманов, Б.И.Исроилов, Ш.И.Илхамов, А.А.Каримов, Н.Ф.Каримов, М.К.Пардаев, Н.К.Ризаев, М.Э.Пулатов, К.Б.Уразов, Б.А.Хасанов, З.Н.Курбанов, К.Р.Хотамов, И.Н.Кузиев, Б.Ю.Менгликулов, И.Р.Давлетов, О.Т.Нурматов, А.М.Худайкулов и других<sup>41</sup>.

---

